

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASI
FANINI YANGI YONDASHUVLAR ASOSIDA O‘TISH**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi
Imomova Nasiba*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanining ahamiyati, uni o‘qitish texnologiyalari va sifatli dars tashkil ertshga oid metodik tavsiyalar berilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqolada matematika darslarida ishlatiladigan metodlari va ulardan o‘rinli foydalanish haqidagi ma‘lumotlar bor.

Kalit so‘zlar

Darsliklar, didaktik materiallar, metodik masalalar, metodika, matematik bilimlar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikadan samarali ta‘lim berilishi uchun o‘qituvchi boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallab, chuqur o‘zlashtirib olmog‘i lozim.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bug‘ini jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta‘lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta‘lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta‘lim tizimi hisoblanadi. Ta‘lim tizimining har bir bo‘g‘ini alohida o‘ringa ega.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da maktab ta‘limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi talablarida “ta‘lim tarbiya jarayonini shakllantirish ta‘lim mazmunini aniqlash, ta‘lim tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va prinsiplarini ishlab chiqish, davlat ta‘lim standartlarini takomillashtirish, o‘quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi, o‘quv metodik majmualar yaratish” vazifasini hal qilish takidlab o‘tilgan.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, Shu bilan birga odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O‘qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o‘quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimini tez topa olishi uchun bu soxada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo‘lishi talab etiladi.

Matematika so‘zi grekcha “mathema” so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma‘nosi “fanlarni bilish” demakdir. Matematika fanining o‘rganadigan obyekti fazoviy shakllar va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Maktab matematika

kursining maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar tizimini berishdan iboratdir. Bu matematik bilimlar tizimi ma'lum usullari (metodika) orqali o'quvchilarga yetkaziladi. Metodika grekcha so'z bo'lib, "metod" degani "yo'l" ma'nosini anglatadi. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tatbiq qiladi. O'qitishda yangi maqsadlarning qo'yilishi matematika o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib keladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallab, chuqur o'zlashtirmog'i zarur. Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladi).

2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quv ishlariga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'limning mazmuni o'quvchilarning aniq bilim bilish imkoniyatlariga mos keladi.

3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak, ya'ni, o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak?

4. O'qitish vositalari - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rgazmali qo'llanmalar va o'quv texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o'qitish).

5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish). O'qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari metodik jihatlarining asosiy tarkiblarida murakkab, uni o'ziga xos grafik bilan tasvirlash mumkin.¹

Matematika darslarida matematik metodlardan o'rinli foydalanish o'quvchilar mantiqiy tafakkuri va hisoblash madaniyatini o'stirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Bu shu bilan asoslanadiki, birinchidan, boshlang'ich sinflar matematika darslarida ko'pgina asosiy metodlarni kiritish ko'rgazmali va qiziqarli tarzda bayon etilishni ta'minlaydi, o'qitish mazmuni va ketma-ketligi, ikkinchidan, tushunchalar, qoidalar va ularni kuzatishlar, mashq va misollar asosida ko'rgazmali bayon etishda ularning qo'llanilishi, uchinchidan, mashq va misollar va ularni yechishda o'quvchilarda fanga bo'lgan qiliqishlarning oshirish zarur imkoniyat va sharoitlar

¹ BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI Ominaxon Elmurod qizi Ikromova Andijon davlat pedagogika instituti, maqola.

paydo bo'ladi. Shuning uchun boshlang'ich sinflar matematika darslarida turli matematik metodlar asosida qiziqarli misol va masalar yechish, turli o'yinlarni tashkil etish orqali fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qo'llash usullarini o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Matematika darslarida bir nechta STO strategiyalaridan foydalanish mumkin: "Assotsiatsiya", "Venn diagrammasi", "Besh qatorli she'r", "Juftlik, guruh, individual ish", "Keng ma'ruza".

So'nggi yillarda kundalik darslarda zamonaviy trendlarga mos ravishda yangi pedagogik texnologiyalar, kompyuterlar, elektron darsliklar, interaktiv doskalardan foydalanish yaxshi samara bermoqda. Ta'lim tizimi elektron aloqa, axborot almashish, Internet, elektron pochta, telekonferentsiyalar, on-layn darslar orqali amalga oshiriladi. Yangi texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'quvchilarga mustaqil ravishda yoki birgalikda ijodiy ish bilan shug'ullanish, izlash, o'z ishining natijalarini ko'rish, o'z-o'zini tanqid qilish va yutuqlaridan zavq olish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev E.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi T.: Turon - Iqbol 2012 yil
2. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi T.: O'qituvchi, 2003 yil
3. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 167-168.